

**ABDULLA QODIRIYNING "ULOQDA" HIKOYASINI INGLIZ TILIGA
TARJIMA QILISHDAGI MUAMMOLAR**

O'rinboyeva Mavludaxon Alijon qizi

Farg'ona davlat universiteti, ingliz tili va adabiyoti fakulteti talabasi

Gafurova Nozima Ikromovna

Farg'ona davlat universiteti, ingliz tili va adabiyoti fakulteti o'qituvchisi

Annotasiya: Ushbu maqolada o'zbek xalqining zabardast yozuvchi vakillaridan biri Abdulla Qodiriyning "Uloqda" hikoyasini ingliz tiliga tarjima qilishda yuzaga keladigan muammolar ko'rib chiqiladi. Maqolada tanlangan asar bo'yicha o'z tarjimamizni ham berib o'tamiz.

Kalit so'zlar: tarjimashunoslik, madaniy va ma'naviy qadriyatlar, o'zbek xalq iboralari

Kirish. Tarjima — bir tildagi matnni boshqa tilda qayta yaratishdan iborat adabiy ijod turi. Tarjima - millatlararo muloqotning eng muhim ko'rinishi. Asliyat va qayta tiklangan matn xususiyatiga qarab badiiy tarjima, ilmiy tarjima va boshqa turlarga ajratiladi. Asl nusxani aks ettirish tarziga ko'ra tafsir, tabdil, sharh kabi ko'rinishlarga ham ega bo'lishi mumkin. Tarjima qadimgi davrlarda, turli qabilaga mansub kishilar orasidagi o'zaro aloqa, muloqot ehtiyoji tufayli yuzaga kelgan. Tilmochlik deb ataladigan bu og'zaki turi hozirda ham saqlanib qolgan. Badiiy tarjimaning asosiy xususiyati tilning badiiy vazifasidan kelib chiqadi. Til badiiy asarda estetik hodisa, san'at faktiga aylanadi. Adabiy asar tili — alohida „badiiy voqelik" unsuridir. Tarjimada ana shu obrazli ifodaviy tildagi badiiy ma'noni boshqa tilning obrazli ifodaviy zaminiga o'tkazish, obrazni obraz bilan qayta ifodalash jarayoni yuz beradi. Shuning uchun tarjimon asardagi voqealarning badiiy tafakkur jarayonini yangidan idrok etadi.

Metodologiya. Quyida Abdulla Qodiriyning "Uloqda" asaridan bir parcha tarjimamizni keltirib o'tamiz:

Yesterday I got my father's permission to go to the ulok. That's why my brother didn't object to me going there. I ate a hasty snack and ran into the barn.

—You're hurrying like you have six legs and seven hands!—laughed my parents.

I took my horse comb and began to groom my qashqa – black star[2]. The poor colt stirred, shook its head, nuzzled and wiggled. Then I thought about how next year this colt would be a powerful horse and I would be able to participate in next year's ulok and everyone would call me a "Turgun horseman"! I sank into sweet dreams.

During the Big Eid (Eid-ul-Fitr—an annual Muslim festival marking the end of Ramadan, involving the exchange of gifts and a festive meal (translator's note)) my

relatives gave me lots of hayitlik[3]. I got so much hayitlik money I was able to buy a Mongolian saddle. I saddled up my colt. He looked really special. After cleaning it I bridled the colt with the Russian bridle my uncle had bought for me after many requests. I led the colt outside and took a good look at him.

The crupper was perfect. The saddle was firm. The girth was tight. And the bridle was as proper as official's. But he did not have a curb-bit. That put me in a bad mood. For some time I thought of what I should do about this problem. Suddenly I remembered a band of leather which my brother was keeping to make a bridle. I went down to the dugout to get it. I made a curb-bit.

Endi esa hikoyaning ushbu qismini o'zbek tilidagi asl holini ko'rib chiqamiz:

Kecha dadamdan so'rab qo'yganim uchun bugun akam ham «kerak emas, borma» degan jekirishini qilmadi. Choyni naridan-beri ichib, otxonaga yugurdim.

Dadam bilan oyim:

— Oyog'ing olti, qo'ling yetti bo'lib qoldiyov! — deb kulishib qoldilar.

Qashlog'ichni oldim-da, qora qashqqamni yalang'ochlab uyoq-buyog'ini qashlab chiqdim. Jonivor tipir-tipir qiladi, bosh chayqaydi, yer tepinadi, dum silkitadi... Shuning bilan mening ko'nglimga: «Xudo xohlasa kelasi yilga bir uloqlar chopayki, hamma meni: «Turg'un chavandoz», deb atasin degan orzular tushadi.

Ulug' hayitdagi hayitlikka oldirgan mo'g'ul egarcha bilan g'alaticha qilib toychamni egarladim. Tog'amga yalinib-yalpog'lanib oldirgan o'rus yuganni artib-surtib soldim-da, o'zim chetroqdan turib kam-ko'stini kuzatdim:

— Quyushqoni ham o'rnida, egar ham yaxshi qo'ngan, qorinbog'i ham jips, yugan ham to'ralarnikidek! Lekin umuldirig'ining yo'qligi biroz ko'nglimni g'ash qildi. Anchagina o'ylab turganimdan keyin, akamning yugan uchun asrab qo'ygan qayishi esimga tushib, sekingina yerto'ladan haligi qayishni olib chiqib, umuldiriq yasadim.

Yuqorida keltirib o'tilgan tarjimadan ko'rishimiz mumkinki, o'zbek xalqigagina xos bo'lgan ko'pgina so'z va iboralarni tarjima qilishga uringanimizda tarjimada g'alizlik yuzaga kelishi mumkin. Yoki keltirilgan ba'zi iboralarni oladigan bo'lsak, onasining - "oyog'ing olti qo'ling yetti" bo'lib qoldiyov degan so'zlari ham to'g'ridan to'g'ri tarjima qilinganda boshqa til vakillariga tushunarli bo'lmaydi. Shuning uchun bu iboraning ekvivalent va adekvatlari haqida fikr yuritish darkor. Yana bir jihatni aytib o'tish joizki, "o'zbek onasi"ning ichki kechinmalarini so'z bilan tarjimada ifodalash anchagina murakkabdir. Hikoyada voqelikni haqqoniy aks ettirishi, personajlar ruhiyatini ishonarli ko'rsatib berishi bilan realistik adabiyot mezonlariga to'la javob beradi. Chunki unda milliy turmush manzarasi xuddi hayotning o'zidagidek jonli va ta'sirchan tasvirlanad. Asarda islom diniga aloqalar bo'lgan ba'zi bayramlar ham keltirib o'tilgan. Ya'ni, Ramazon hayiti - musulmonlarning milliy bayrami hisoblanadi. Asardagi umulduruq, uloq, chala, chavandoz, quyushqon, egar so'zlari o'zbek xalqining naqadar boy va milliy qadriyatlarini aks ettiradi.

Xulosa. Xulosa sifatida shuni ta'kidlab o'tish joizki, Abdulla Qodiriyning "Uloqda" hikoyasi o'zbek xalqining milliy qadriyatlarini va an'alarini yaqqol aks ettirgan asar deya atashimiz mumkin. Ushbu asar bir vaqtning o'zida ham shodlik ham g'ammi ifodalay oladi. Ya'ni adib o'z asarida kontrast uslubidan mohirona foydalangan holda asar mazmunini qisqa satrlarda ochib bera olgan. Bu esa Abdulla Qodiriyning naqadar qalami o'tkir yozuvchi ekanligini tasdiqlaydi. Adibning ushbu asarini bir tildan boshqasiga tarjima qilish anchayin mehnat va teran fikr talab etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Khoshimova, N. A. (2021). ASSOCIATIVE FIELDS OF THE COLLECTIVE AND INDIVIDUAL CONSCIOUS. *Theoretical & Applied Science*, (5), 436-439.
2. Hashimova, N., & Sattorov, T. (2021). USAGE OF ENGLISH MILITARY TERMINOLOGIES AS A NEUTRAL AND COLLOQUIAL VOCABULARY. *CURRENT RESEARCH JOURNAL OF PHILOLOGICAL SCIENCES* (2767-3758), 2(11), 162-167.
3. Hoshimova, N. A. (2020). Ingliz va o'zbek tillarining funktsional uslublari. *Молодой ученый*, (19), 584-585.
4. Xoshimova, N. (2019). External factors of associations" individuality. *Scientific journal of the Fergana State University*, 2(2), 134-136.
5. Toirova, N. I. (2019). The significance of the symbols of Mirror and Portrait in teaching Symbolism. *sign*, 1, 22.
6. Mamajanova, M. (2021). MODEL CONCEPT MODELING IN LINGUISTICS TYPES OF LINGUISTIC MODELS. *Экономика и социум*, (1-1), 160-163.
7. Holbekova, M., Mamajanova, M., & Holbekov, S. (2021). COMMUNICATIVE APPROACH TO TEACHING FOREIGN LANGUAGES. *Экономика и социум*, (3-1), 83-85.
8. Mirzayevna, M. (2021). Innovative technologies in foreign language teaching methodology. *ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal*, 11(12), 465-467.
9. Kasimova, G. (2022). IMPORTANCE OF ICE
9. Gafurova, N. I. (2021). Structural-semantic classification of construction terms in English and Uzbek languages. *ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal*, 11(5), 571-575.
10. Gafurova, N. (2020). Ҳозирги замон тилшунослигида "Термин" ва унга турлича ёндашувлар. *Журнал иностранных языков и лингвистики*, 1(1), 58-62.